



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 444 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafojeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	
Bo'lajak talabalarining individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish	138
Arslonova Gulsora Kurbonovna	
Ona tili darslarida til kompetentsiyasini kognitiv-semantik yondashuv asosida shakllantirish	142
Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	147
Maxliyo Turotova Erkin qizi	
Talabalarining kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirish samaradorligi	153
Urinova Sabina Shuxrat qizi	
Imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqini	160
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	
Inklyuziv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari	163
Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	167
Abdurasulova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Muxammas (taxmis) janrining o'zbek she'riyatidagi tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy poetik talqinlari	170
Avazova Sitara	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligining asosiy shakllari.....	173
Babayeva Dono Razzakovna, Erkinova Madinabonu Otabek qizi, Xolmatova O'g'li Tojiddin qizi	
Yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	177
Botirova Zohida Doniyor qizi	
Logoritmikada sportga asoslangan o'yinlar	180
Dilfuza Ochilova Zayniddinovna	
Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri (Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida).....	184
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich	



Bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning zaruriyati	188
Karimova Feruzaxon Zakirovna	
Effective Techniques of Teaching Foreign Language Classes: a Sample of The 4CS Method	191
Khaitmuratova Zarina Sobirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini tabiat bilan tanishtirish orqali shakllantirish ..	193
Maxmudova Durdona Mirkarimovna	
O'quvchilarning kasbiy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	196
Mutallibjonov Ma'rufjon	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibini to'g'ri tashkil etish	200
Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi	
Aksiologik yondashuv asosida altruistik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish	204
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari	207
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
Raqamlashtirish jarayonida bo'lajak muhandislarni ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-metodik ta'minoti	211
Nurov O'tkir Xudoyberdiyevich	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish	214
O'roqova Zilola Salomovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati	217
Qaramanov Obid Xudayberdiyevich	
Pedagoglar uchun sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari	221
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich	
Talabalarda psixologik moslashuvchanlikda refleksiya mohiyati va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish samaradorligi	226
Ravshanova Nargiza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish	230
S. Irisova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etishning nazariy asoslari	233
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Qo'chqorova Munisa Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish	237
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Abduraufova Muxayyo Xabibullo qizi	
Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv	241
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi	
Sun'iy intellektni tibbiy oliy ta'lim o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash: innovatsion yondashuvlar va tajribalar	246
Toxirova Farida Olimjonovna	
Talabalarni estetik tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish modeli	251
Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li	
Xalqaro kimyo olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan kreativ topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi	254
Usmanov Baxtiyor Xabibullayevich	
Xoja (Sayyid Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxo'ja) va uning asarlarining o'zbek nasridagi o'ri va ahamiyati	258
Valijonova Mahzunabonu	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida diversifikatsiya: tizimli yondashuv va rivojlanish strategiyalari	261
Xakimova Sevara Shavkat qizi	
STEAM texnologiyasini nodavlat ta'lim tashkilotlarida ommalashtirishning ijobiy tomonlari	264
Xalokova Maksudaxon Ergashevna, Melnikova Zaynura	
Muhammad Sodik Qoshg'ariy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi	267
Moxira Niyozqulova Nuraliyevna	



Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (AQSh tajribasi).....	270
<i>Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi</i>	
Xalqaro baholash dasturlari mohiyati va ahamiyati	274
<i>Vohidova Ibodot Hurmatullayevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.....	277
<i>Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich</i>	
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	281
<i>Xusanova Dilraboixon Botiraliyevna</i>	
Talabalarining jismoniy tayyorgarligida suzish mashg'ulotlarining ta'siri	285
<i>Zuxriddin Nasibovich Boboshev</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadryatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	289
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Dadabayev Akramjon Askaraliyevich</i>	
Использование чат-ботов в образовательном процессе.....	294
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир кизи</i>	
Формирование гендерной культуры детей старшего дошкольного возраста в контексте государственной стратегии Узбекистана	298
<i>Намазбаева Лола Закировна, Тиллабаева Малика Хабибуллаевна</i>	
STEAM технологии в дошкольном образовании	302
<i>Садикова Дилафруз Хусановна</i>	
Системная модель социально-эмоционального обучения в Узбекистане: интеграция подходов, основанных на школьном образовании и партнерстве семьи и школы	307
<i>Санакулова Нигора</i>	
Oila qurish yoshidagi talabalar psixologik xususiyatlari.....	311
<i>Qo'ziyeva Gulzoda Shermat qizi</i>	
Ingliz tili nutq faoliyati turlarini rivojlantirishda leksik-assotsiativ tarmoqlardan foydalanishning lingvodidaktik asoslari.....	315
<i>Mirzakamolova Maftuna Rahimjon qizi</i>	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari.....	318
<i>Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda ona tili mashqlarining roli	321
<i>Boltayeva Guzal Tolibovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish	324
<i>Ziyayeva Umida Turaxodjayevna</i>	
Maktabgacha hamda boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi tizimini modernizatsiya qilishning innovatsion istiqbollari	327
<i>A'zamov Ruhullo Mahmudjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitishning maqsadlari va vazifalari.....	333
<i>Alikulova Bibisora Abdulvokhobovna</i>	
Bola shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning pedagogik ahamiyati	336
<i>Azimova Dilnoza Sherzodovna</i>	
Raqamli didaktika sharoitida oliy ta'limni raqamlashtirishning nazariy asoslari va pedagogik xususiyatlari	339
<i>Berdikulova Shaxnoza Erkinjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatini shakllantirishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda shaxmat o'yinidan foydalanish imkoniyatlar	343
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i>	

O'zbek tilidagi "kasb-hunar" va "lavozim-amal" konseptlarining hozirgi zamon o'zbek tili konseptosferasidagi o'rni	348
Dexqonova Muattarxon Ilxomovna	
O'quv jarayonida ijtimoiy tarmoqlar orqali bilim almashishning didaktik imkoniyatlari va metodologik asoslari	352
Ernazarov Alisher Ergashevich, Pimkulova Stora Boltayevna	
"Intellekt xarita" yordamida o'quvchilarga qattiq jismlarning solishtirma issiqlik sig'imini mavzusini tushuntirish va ularning to'la fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	358
Eshboboyeva Muxlisa Zavqiy qizi	
Inklyuziv ta'lim texnologiyalari	363
Fayzullayeva Shoira Shorahmatovna	
Oliy pedagogik ta'lim tizimida hamkorlikda ta'lim nazariyasi va amaliyoti	366
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna	
Hikoya tuzishga o'rgatish maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida	369
Imixanova Nodira Saidburxon qizi	
Professional Competency Development of Future English Language Teachers: A Framework for the 21 st Century	374
Kamoldin Tadjiboyev	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	378
Nosirova Dilfuza	
Inklyuziv sinf muhitida zaif eshituvchi bolalar bilan musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning nazariy yondashuvlari	383
Qizlarxon Isomova	
Raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar	389
Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna	
Boshlang'ich sinflarda perimetr, yuza va hajmni o'rganish metodikasi samaradorligini shakllantirish	392
Shodmonova Madina Otabek qizi	
Chiziqli operatorlarning spektral xossalari	398
Sultonboyeva Zuhra Bobomurod qizi	
Qisqa masofaga yuguruvchilar ish qobiliyatini oshirish usullari	402
Utayev Z. M.	
Neyropedagogik yondashuv asosida 9–11 yoshli o'quvchilarda ingliz tilida matnni o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda ijro funksiyalarining o'rni	408
Xolboyeva Nodiraxon Abdumalik qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosining dolzarbligi	413
Yo'ldosheva Dilnura Nizomjon qizi	
Bo'lg'usi tarbiyachilarda grafik organayzerlar vositasida ekologik tarbiyani shakllantirish usullari	416
O. Xo'janiyozova, Yuldashova Sanamjon Bobomurod qizi	
Взаимодействие воспитателей и родителей в процессе формирования нравственных представлений дошкольников	419
Жураева Наргиза Таировна, Абдуллаева Халимахон Дилёрна	
Развитие государственно-частного партнёрства в сфере дошкольного образования Республики Узбекистан	423
Курбанова Нуржамал Бахбергеновна	
Talaba qizlarning jismoniy va funksional tayyorgarligini shakllantirishning ilmiy metodologik asoslari	426
M. M. Ma'rufov, Sh. R. Ma'rufova	
Развитие языковых навыков у дошкольников через игровые методы обучения английскому языку	430
Садикова Шоиста Акбаровна	



“Узбекский текст в русской литературе XX–XXI веков...”	433
Сулаймонова Дурдонахон Равшан кизи, Иванова Ирина Николаевна	
Механизмы использования цифровых педагогических технологий для обеспечения непрерывности образовательного процесса учащихся начальных классов в условиях длительного лечения.....	437
Турсунова Д. З., Холлиева Н. Х.	
Патриотическое воспитание будущих педагогов: совершенствование методики формирования любви к родине в условиях профессиональной подготовки	440
Шарипова Холида Дехкановна	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING AQLIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA DARS VA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA SHAXMAT O'YINIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Boboqulov Chori Urolovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Jismoniy madaniyat kafedrasining o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish va shakllantirishda shaxmat o'yinidan dars hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarda samarali foydalanish imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxmat o'yinining mantiqiy tafakkur, diqqat, xotira, mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi aqliy jarayonlarga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, maqolada shaxmat mashg'ulotlarini boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiyalashning metodik asoslari, o'yinli va interfaol yondashuvlar orqali o'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shaxmat o'yinidan ta'lim jarayonida maqsadli foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini asoslab beradi. Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari, pedagoglar hamda tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari, aqliy qobiliyatlar, shaxmat o'yini, mantiqiy tafakkur, diqqat va xotira, mustaqil fikrlash, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar, pedagogik texnologiyalar, intellektual rivojlanish.

Abstract: This article provides a scientific and pedagogical analysis of the possibilities for the effective use of chess in both classroom and extracurricular activities to develop and shape the mental abilities of primary school students. The study examines the impact of chess on mental processes such as logical thinking, attention, memory, independent thinking, and critical thinking. The article also discusses the methodological foundations for integrating chess lessons into the primary education process, as well as ways to increase students' cognitive activity through game-based and interactive approaches. The results substantiate that the purposeful use of chess in the educational process is an effective pedagogical tool for developing the mental abilities of primary school students. The article is of practical significance for primary school teachers, educators, and researchers.

Key words: primary school students, mental abilities, chess, logical thinking, attention and memory, independent thinking, curricular and extracurricular activities, pedagogical technologies, intellectual development.

Аннотация: В данной статье научно и педагогически анализируются возможности эффективного использования шахмат в классной и внеклассной деятельности для развития и формирования умственных способностей учащихся начальной школы. В исследовании изучается влияние шахмат на такие мыслительные процессы, как логическое мышление, внимание, память, самостоятельное и критическое мышление. В статье также рассматриваются методические основы интеграции занятий по шахматам в процесс начального образования, а также способы повышения когнитивной активности учащихся посредством игровых и интерактивных подходов. Результаты исследования подтверждают, что целенаправленное использование шахмат в образовательном процессе является эффективным педагогическим инструментом для развития умственных способностей учащихся начальной школы. Статья имеет практическое значение для учителей начальной школы, педагогов и исследователей.

Ключевые слова: учащиеся начальной школы, умственные способности, шахматы, логическое мышление, внимание и память, самостоятельное мышление, учебная и внеклассная деятельность, педагогические технологии, интеллектуальное развитие.



KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Boshlang'ich ta'lim davri o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, diqqat, xotira, mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi aqliy jarayonlarning shakllanishi uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. Mazkur jarayonda ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida o'yinli va interfaol metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shaxmat o'yini o'zining mantiqiy tuzilishi, strategik fikrlashni talab etishi hamda intellektual faollikni kuchaytirishi bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, shaxmat o'yinini dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayoniga maqsadli va tizimli integratsiyalash o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, o'quv motivatsiyasini kuchaytirish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, darsdan tashqari mashg'ulotlarda shaxmat o'yinidan foydalanish o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan birga, ularning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, shaxmat o'yinidan boshlang'ich ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganish va asoslash zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqadigan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini (mantiqiy tafakkur, diqqat, xotira, mustaqil va tanqidiy fikrlash) shakllantirishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida shaxmat o'yinidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari hamda samaradorligini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash mazkur tadqiqotning asosiy yo'nalishini tashkil etadi.

TADQIQOT VAZIFALARI

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini hamda shaxmat o'yinining intellektual rivojlanishga ta'sirini tahlil qilish.
2. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda shaxmat o'yinidan foydalanishning metodik imkoniyatlari, shakl va usullarini aniqlash hamda tizimlashtirish.
3. Shaxmat o'yini asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari rivojiga ta'sirini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash va pedagogik samaradorligini baholash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar, avvalo, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hamda o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalariga qaratilgan.

A. S. Abdusamatovning tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini modellashtirish asosida takomillashtirish metodikasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Muallif o'quv jarayonida o'quvchining faol subyekt sifatida shakllanishi, mustaqil fikrlash va bilish jarayonlarini faollashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv shaxmat kabi intellektual o'yinlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi ^[1].

U. Q. Xoliqov va M. A. Abdualimova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda shaxmat o'rgatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy sifatлари hamda mantiqiy fikrlashini shakllantirishning amaliy holati tahlil qilingan. Mualliflar shaxmat mashg'ulotlarini tizimli tashkil etish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini asoslab beradilar ^[8].

J. M. Ishtaev shaxmat sport turi orqali rivojlanadigan shaxs sifatlarini tahlil qilib, ushbu o'yin o'quvchilarda sabr-toqat, strategik fikrlash, mas'uliyat va irodaviy sifatlarini shakllantirishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Ushbu jihatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafaqat aqliy, balki shaxsiy rivojlanishida ham shaxmatning tarbiyaviy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi ^[6].

Ch. U. Boboqulov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bevosita shaxmat o'yinining boshlang'ich sinf o'quvchilari aqliy rivojiga ta'sirini yoritib beradi. Xususan, "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyati rivojlanishida shaxmat o'yinidan foydalanishning samaralari" nomli maqolada shaxmat mashg'ulotlarining mantiqiy tafakkur, xotira va diqqatni rivojlantirishdagi ahamiyati empirik misollar asosida ochib berilgan. Keyingi ishlarida (2024-yil) muallif aqliy qobiliyatlarni shakllantirishdagi pedagogik muammolar va ularning yechimlari, shuningdek, shaxmat orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotlar mazkur maqola mavzusining bevosita ilmiy negizini tashkil etadi ^[2,3,4].



E. M. Xudoynazarovning ilmiy ishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilib, aqliy mashqlar va muammoli vaziyatlar asosida o'qitish samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu yondashuv shaxmat kombinatsiyalari va masalalarini o'qitish jarayonida qo'llash uchun metodik zamin yaratadi ^[9].

T. M. Sultanov o'yin texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim jarayoniga adaptatsiya qilishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganib, o'yin faoliyati orqali o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishi va aqliy faolligi ortishini ta'kidlaydi. Ushbu xulosalar shaxmatni samarali o'yin texnologiyasi sifatida qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi ^[7].

R. R. Dadaboevning tadqiqotida jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash tizimi takomillashtirilgan bo'lib, unda o'yin faoliyatining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlari alohida e'tirof etiladi. Bu jihatlar shaxmat mashg'ulotlarining integrativ pedagogik ahamiyatini yanada chuqurroq ochib beradi ^[10].

Sh. Ibragimova va X. Muxammadjonovalarning ilmiy ishlarida kichik maktab yoshidagi bolalar aqliy taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar kompleks tarzda o'rganilgan. Mualliflar aqliy rivojlanishda muhit, o'yin faoliyati va ta'lim mazmunining uyg'unligini muhim omil sifatida ko'rsatadilar. Bu holat shaxmat o'yinining dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llanilishi pedagogik jihatdan asosli ekanini tasdiqlaydi ^[5].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shaxmat o'yinining boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda katta pedagogik salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda shaxmatni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda kompleks hamda tizimli qo'llash imkoniyatlari yetarli darajada umumlashtirilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini shakllantirishda dars hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarda shaxmat o'yinidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotning uzviyligi, tizimli hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida ishlab chiqildi. Tadqiqotning metodologik asosini ta'limda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, o'yin texnologiyalari nazariyasi, shuningdek, kichik maktab yoshidagi bolalar psixologik rivojlanishining yosh xususiyatlariga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Shu bilan birga, Sharq va G'arb pedagogik tafakkurida aqliy rivojlanish, tafakkur hamda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga doir konseptual yondashuvlar tadqiqotning nazariy poydevori sifatida xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik tadqiqot metodlari majmuasidan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish hamda tizimlashtirish usullari qo'llanildi. Ushbu metodlar yordamida shaxmat o'yinining boshlang'ich ta'lim tizimidagi o'rni, uning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari hamda mavjud muammolar aniqlab olindi.

Empirik tadqiqot metodlariga pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, diagnostik topshiriqlar hamda tajriba-sinov ishlari kiritildi. Pedagogik kuzatuv orqali o'quvchilarning shaxmat mashg'ulotlaridagi faolligi, mantiqiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalaridagi o'zgarishlar o'rganildi. Suhbat va so'rovnomalarda yordamida o'quvchilar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda shaxmat murabbiylarining fikr-mulohazalari tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy bosqichlaridan biri sifatida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari tajriba va nazorat guruhlariga ajratilib, tajriba guruhida dars hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarda shaxmat o'yiniga asoslangan maxsus metodika joriy etildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish usullari saqlab qolindi. Tajriba davomida o'quvchilarning aqliy qobiliyatlaridagi o'zgarishlar, jumladan mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalari diagnostik mezonlar asosida baholandi. Olingan natijalarni tahlil qilishda matematik-statistik metodlardan, xususan foizli tahlil, solishtirma tahlil hamda dinamik ko'rsatkichlarni aniqlash usullaridan foydalanildi. Mazkur yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda shaxmat o'yiniga asoslangan metodik yondashuvning boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali o'rganildi. Tajriba jarayonida o'quvchilar nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida shaxmat o'yini asosida tashkil etilgan maxsus mashg'ulotlar muntazam ravishda o'tkazildi, nazorat guruhida esa an'anaviy ta'lim usullari qo'llanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxmat o'yini asosida olib borilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri, diqqatni jamlash, xotira, tahlil qilish hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining sezilarli darajada rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Tajriba guruhidagi o'quvchilarda vaziyatni oldindan rejalashtirish, sabab–oqibat bog'liqliklarini aniqlash va strategik fikrlash elementlari kuchaydi. Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkichlarda o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, u tajriba guruhi natijalariga nisbatan past darajada bo'ldi. Ayniqsa, dars jarayonida shaxmat elementlaridan foydalanish o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirganligi aniqlandi. Shaxmat masalalari orqali matematik va mantiqiy topshiriqlarni bajarish, o'yin vaziyatlarini tahlil qilish o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirdi. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda esa shaxmat turnirlari, guruhli va juftlik mashg'ulotlari o'quvchilarda raqobatbardoshlik, sabr-toqat va irodaviy sifatlarining shakllanishiga xizmat qildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, shaxmat o'yini o'quvchilarning diqqat barqarorligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Tajriba guruhida diqqatni uzoq vaqt saqlab turish, topshiriqlarni oxirigacha bajarish va xatolar ustida ishlash ko'nikmalari ancha yaxshilandi. Bu holat kichik maktab yoshidagi bolalarga xos bo'lgan tez chalg'ish muammosini kamaytirishga yordam berdi.

Tadqiqot natijalari muhokamasi davomida avvalgi ilmiy izlanishlar bilan qiyosiy tahlil o'tkazildi. Jumladan, Boboqulov Ch.U., Ishtaev J.M., Xoliqov U.Q. va boshqa olimlarning tadqiqotlarida shaxmat o'yinining aqliy rivojlanishga ta'siri ijobiy baholangan bo'lib, mazkur tadqiqot natijalari ushbu ilmiy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotda shaxmatdan nafaqat darsdan tashqari mashg'ulotlarda, balki dars jarayonida ham tizimli foydalanish zarurligi ilmiy asoslab berildi. Muhokama natijalariga ko'ra, shaxmat o'yinini boshlang'ich ta'lim jarayoniga joriy etishda o'qituvchining metodik tayyorgarligi muhim omil hisoblanadi.

Metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning aqliy faolligini oshiradi, aks holda shaxmat faqat o'yin sifatida qabul qilinib, ta'limiy samaradorlik pasayishi mumkin. Shu bois, shaxmat mashg'ulotlarini rejalashtirishda yosh xususiyatlari, o'quv yuklamasi va individual imkoniyatlarni hisobga olish zarurligi aniqlandi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda shaxmat o'yinidan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar ushbu mavzudagi ilmiy-nazariy qarashlarni boyitib, boshlang'ich ta'lim amaliyotida shaxmat o'yinini qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur ilmiy tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini shakllantirishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida shaxmat o'yinidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxmat o'yini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, diqqat, xotira, mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Tajribalar asosida shaxmat o'yiniga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning o'quv-bilish faolligini oshirishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishi aniqlandi.

Dars jarayonida shaxmat elementlaridan foydalanish o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirgan bo'lsa, darsdan tashqari mashg'ulotlarda tashkil etilgan shaxmat mashg'ulotlari ularning ijtimoiy faolligi, sabr-toqat va irodaviy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Tadqiqot davomida shaxmat o'yinini boshlang'ich ta'lim jarayoniga samarali joriy etish o'qituvchining metodik tayyorgarligi, mashg'ulotlarning tizimlili va yosh xususiyatlarini hisobga olish bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Metodik jihatdan puxta rejalashtirilgan shaxmat mashg'ulotlari o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ta'lim samaradorligini oshiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda shaxmat o'yinidan tizimli foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali pedagogik mexanizm bo'lib, uni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari va shaxmat murabbiylari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdusamatov A. S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini modellashtirish asosida takomillashtirish metodikasi: ped. f. b. f. d. diss. – Qarshi, 2023. – 123 b.
2. Бобоқулов Ч. У. Бошланғич синф ўқувчиларининг ақлий қобилияти ривожланишида шахмат ўйинидан фойдаланишнинг самаралари // “FAN – SPORTGA” журнали. – 2023/5. – Б. 82–84.
3. Boboqulov Ch. U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy qobiliyatlarni shakllantirishdagi pedagogik muammolar va ularning yechimi // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – № 5 (4), 2024. – Б. 480–485.
4. Boboqulov Ch. U. Shaxmat o'yini orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlari // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – № 12 (4), 2024. – Б. 556–560.



5. Ibragimova Sh., Muxammadjonova X. Kichik maktab yoshidagi bolalar aqliy taraqqiyoti rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar // Scientific Progress. – Volume 2, Issue 1, 2021. – 501–505-b.
6. Ishtaev J. M. Shaxmat sport turi orqali rivojlanadigan shaxs sifatleri // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – Volume 2, Issue 6, June 2022. – 557–562 b.
7. Sultanov T. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'yin texnologiyalari asosida ta'limga adaptatsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari (umumta'lim maktablarining 1-sinflari misolida): ped. f. b. f. d. diss. avtoref. – Chirchiq, 2023. – 7–8 b.
8. Xoliqov U. Q., Abdualimova M. A. Shaxmat o'rgatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy sifatleri va mantiqiy fikrlashini shakllantirishning ta'lim amaliyotidagi holati // "Tafakkur va talqin" mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Buxoro, 17-may 2023-yil. – 1053–1060 b.
9. Xudoynazarov E. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. f. b. f. d. diss. – Termiz, 2022. – 30–34 b.
10. Дадабоев Р. Р. Жисмоний тарбия дарсларида бошланғич синф ўқувчиларини ахлоқий тарбиялаш тизимини такомиллаштириш: пед. ф. б. ф. д. дисс. – Наманган, 2022. – 148-б.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.